



MAMLAKATIMIZDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA HUDUDLARARO SOLIQ INSPEKSIYASINING O'RNI VA AHAMIYATI

i.f.d., dots. Normurzayev Umid
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha
hududlararo davlat soliq inspeksiyasi
ORCID: 0009-0001-0130-8766
umid.normurzayev@soliq.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatda soliq sohalarida ko'p yillardan buyon soliq ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha rivojlantirish sarhisobi, biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni takomillashtirishda hududlararo soliq inspeksiyasining o'rni va ahamiyati yoritilgan. O'zbekiston soliq tizimida amalga oshirilayotgan ayrim muhim islohotlar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq siyosati, soliq tushumlari, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ НАЛОГОВОЙ ИНСПЕКЦИИ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ В НАШЕЙ СТРАНЕ

д.э.н., доц. Normurzayev Umid
Межрегиональная налоговая инспекция
по крупным налогоплательщикам

Аннотация. В статье подведены итоги многолетнего прогресса страны в совершенствовании налогового администрирования в налоговой сфере, подчеркнуты роль и значение межрегиональной налоговой инспекции в совершенствовании масштабных реформ, направленных на дальнейшее укрепление доверия деловых кругов. Изучены некоторые важные реформы, реализуемые в налоговой системе Узбекистана, разработаны научно-практические выводы и предложения на основе зарубежного опыта и его применения в нашей стране.

Ключевые слова: налоговая политика, налоговые поступления, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF INTERREGIONAL TAX INSPECTIONS IN IMPROVING TAX ADMINISTRATION IN OUR COUNTRY

DSc, assoc. prof. Normurzayev Umid
Interregional Tax Inspection on large taxpayers

Abstract. The article summarizes the country's long-term progress in improving tax administration in the tax sphere, emphasizes the role and importance of the interregional tax inspectorate in improving large-scale reforms aimed at further strengthening the trust of business circles. Some important reforms implemented in the tax system of Uzbekistan have been studied, scientific and practical conclusions and proposals have been developed based on foreign experience and its application in our country.

Keywords: tax policy, tax revenues, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

Kirish.

Hozirda jahonda soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Soliq siyosati strategiyasi orqali inklyuziv o'sish sur'atlariga erishish, soliq tizimida daromadlarni oshirish qobiliyatini oshirish hamda davlat xarajatlarining barqarorligini ta'minlash, rivojlanayotgan davlatlarning fiskal siyosatini kuchaytirish, adolatli va inklyuziv soliq tizimini joriy etish, soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishda raqamli platformalardan samarali foydalanish kabilar bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida yangi mazmundagi strategik maqsadlarni belgilab beruvchi soliq siyosatini shakllantirish va amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirish, soliq yukini kamaytirib borish, adolatli soliq tamoyillariga asoslangan soliq tizimini yanada rivojlantirib borish yo'nalishida sezilarli islohotlar amalga oshirish bu boradagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga bunday soliq siyosatining samaradorligini ta'minlashda, hali o'z yechimini kutayotgan ilmiy-amaliy muammolar ham mavjud.

Adabiyotlar sharhi.

G'arb iqtisodchilari "Fisher, Dornbush va Shmalenzilarning (Jo'rayev va Safarov, 2005) fikricha, soliq siyosati mustaqil tushuncha hisoblanmaydi. Ular soliq siyosati tushunchasiga fiskal siyosat tushunchasi orqali yondoshadilar. Fiskal siyosat esa davlatning o'z daromadlari va xarajatlari bo'yicha qaror qabul qilishi bo'lib hisoblanadi" - deb ta'kidlashadi.

Aronov va Kashinlar (2007) esa "maksimal soliq siyosatining mazmunini soliq siyosatining asosiy strategiyasi sifatida qaraydi, ya'ni, ularning fikricha, soliqlar sonini oshirish, soliq stavkalarini oshirish, soliq imtiyozlarini kamaytirish soliq siyosatining strategik maqsadlari sifatida qabul qilinishi mumkin" ta'riflaydi.

Mayburov (2007) "soliq islohoti soliq tizimini tubdan o'zgartirishni davlat soliq siyosatining yangi mazmuniga moslashtirish" deb ta'kidlaydi.

Dementeva (n.d.) soliq siyosatini davlat iqtisodiy siyosatining in'ikosi ekanligini, u mustaqil ahamiyatga egaligi va soliqlarning ilmiy nazariyasiga asoslanishi lozimligini ta'kidlaydi. "Amalga oshirilayotgan soliq siyosatining natijalari ko'p jihatdan davlat o'z iqtisodiy siyosatiga qanday tuzatishlar kiritishga majbur ekanligini, soliq tizimini qanday qurish kerakligini belgilaydi"

Karp (2001) Soliq siyosati davlatning o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi umumiy moliyaviy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, soliq sohasidagi davlat faoliyati konsepsiyasi, soliq mexanizmi, soliq tizimini boshqarish kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Sitnikovaning fikricha, (2012) "konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchilar guruhiga kiritishda aktivlarini tan olish yoki maxsus qayta baholash zarur, guruhga kirishdan oldin korxonaning zararlarini o'tkazish tartibi ishlab chiqilishi lozim, konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchining moliyaviy-xo'jalik faoliyatining bir xil qiymatga ega bo'lgan sub'ekt sifatida xalqaro e'tirof etilishiga alohida e'tibor qaratilishi lozim".

Darkina (2019) yirik soliq to'lovchilarning xususiyatlari sifatida to'xtalib, "yirik soliq to'lovchilarga quyidagi xususiyatlar xosdir: katta pul oqimi, keng ko'lamli hujjatlar aylanmasi, soddalashtirilgan tizim bo'yicha soliqqa tortiladigan turli tarkibiy bo'linmalarning integratsiyasidan foydalanish, mamlakat ichida ham, chet elda ham turli firmalar bilan hamkorlik mavjudligidir".

Tahlil va natijalar muhokamasi.

"O'zbekiston-2030" Strategiyasiga muvofiq, soliq organlari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada yaxshilash, raqamlashtirish jarayonlarini izchil davom ettirish, soliq organlari faoliyatida shaffoflikni ta'minlash hamda

inson resurslaridan foydalanishning samaradorligini oshirish maqsadida quydagilarni taklif etamiz:

Maqsad va ustuvor yo'nalishlar:

Taklif qilinayotgan tahrir:

Soliq kodeksining 46-modda. Tovarlar va xizmatlarni realizatsiya qilish.

...(uchinchi qism) Soliq to'lovchining vakolatli davlat organlariga yuridik va jismoniy shaxslardan undirilgan jarimalar taqsimoti ko'rinishida mablag'larni olishga doir faoliyati vakolatli davlat organiga haq evaziga xizmatlar ko'rsatish sifatida e'tirof etiladi.

Taklif qilinayotgan shartlardan kutilgan ta'sir va asoslantirish: Respublikada tadbirkorlarga yo'l harakati qoidalari buzilganligini foto va video qayd etish dasturiy-texnik vositalarini o'rnatish orqali faoliyatni tashkil etishga ruxsat berilgan.

Xususan, 2024-yilda 25 ta korxonaning xizmatlar aylanmasi 280 mlrd so'mni (2023-yilda 216 mlrd.so'm, o'sish 30 %) tashkil etgan. Mazkur faoliyatni tartibga solish bo'yicha qarorga (21.04.21 y. VMQ 232-son) ko'ra, qayd etilgan yo'l harakati qoidabuzarliklaridan undirilgan jarima summasini (2 yilga qadar 50 %, keyinchalik 10 %) taqsimlash asosida tadbirkorlarga haq to'lanishi belgilangan. Bunda tadbirkor davlat organiga xizmat ko'rsatayotganligiga qaramasdan, mazkur faoliyatga nisbatan QQSni hisoblashda jarima summasi soliq bazasi sifatida e'tirof etilishiga (ya'ni jarimada QQS bo'lishi kerak deya malakalashga) va bu ko'plab soliq nizolariga (QQS hisobga olinmasligiga) sabab bo'lmoqda. Tadbirkorlarga QQS hisobga olish imkoniyatini berish maqsadida mazkur faoliyatni tadbirkor tomonidan vakolatli organga xizmat ko'rsatish sifatida qaralishi va ko'rsatilgan xizmatlar uchun QQS hisoblash taklif etiladi.

Taklif qilinayotgan tahrir: Soliq kodeksining 47-modda. Hisobvaraq-faktura

(birinchi qism) Tovarlarini (xizmatlarni) realizatsiya qilishda yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar, agar mazkur moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu tovarlarni (xizmatlarni) sotib oluvchilarga hisobvaraq-fakturani taqdim etishi shart.

Taklif qilinayotgan shartlardan kutilgan ta'sir va asoslantirish: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-avgustdagi PQ-247-son qaroriga muvofiq, yillik aylanmasi 1 milliard so'mgacha bo'lgan YaTTlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz miqdorida belgilangan.

Bunda o'zini band qilgan shaxslarga elektron hisobvaraq-fakturalar va qabul qilish-topshirish dalolatnomalarini (bajarilgan ishlar to'g'risida) raqamli platformalarda masofaviy biometriya vositasi orqali identifikatsiya qilish imkoniyati yaratiladi. Bugungi kunda 5,8 mln.nafar o'zini o'zi band qilgan shaxslar ro'yxatdan o'tkazilgan. Shu bilan birga, o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan shug'ullanish mumkin bo'lgan faoliyatlar bo'yicha tasdiqlangan ro'yxatda yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatishga qaratilgan 100 dan ortiq faoliyat turlari nazarda tutilgan. Misol uchun, qog'ozdan qutilar, banderollar tayyorlash faoliyati bilan mashg'ul bo'lgan o'zini o'zi band qilgan shaxslarning kontragentlari asosan ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar hisoblanadi. Bunda, yuridik shaxslar xarid qilgan tovarlari bo'yicha o'zini o'zi band qilgan shaxslardan hisobvaraq-faktura taqdim qilishni so'raydi. Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilari bo'lgan yuridik shaxslar va YaTTlar hisobvaraq-faktura rasmiylashtirishi belgilangan. Endilikda qarorga asosan, o'zini o'zi band qilgan shaxslar ham aylanmadan olinadigan soliq to'lovchisi hisoblanib, yuridik shaxslar va YaTTlar kabi hisobvaraq-faktura rasmiylashtirishi talab etiladi. Raqamli platformadan ro'yxatdan o'tgan o'zini o'zi band qilgan shaxslarning soliq hisobotlari platforma tomonidan ularning aylanmalari beriladigan hisobvaraq-faktura va QR kodlar ma'lumotlari asosida avtomatik tarzda shakllantirib beriladi. Yuqoridagilarga muvofiq, o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan hisobvaraq-faktura rasmiylashtirilishi taklif etilmoqda.

Taklif qilinayotgan tahrir: Soliq kodeksining 60-modda. Ushbu Kodeksda qo'llaniladigan boshqa tushunchalar. Ushbu Kodeks maqsadida quyidagi tushunchalardan ham foydalaniladi:

...(o'n ikkinchi xatboshi) Asosiy faoliyat turi – yuridik shaxsning hisobot davri yakunlari bo'yicha umumiy realizatsiya qilish hajmidagi sof tushum ulushi ustunlik qiladigan faoliyat turi.

Taklif qilinayotgan shartlardan kutilgan ta'sir va asoslantirish: Soliq kodeksining 187, 206, 243, 302-moddalarida, soliq majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash bo'yicha ayrim masalalar soliq to'lovchining asosiy faoliyat turiga bog'liqligi bayon etilgan.

Biroq, ushbu Kodeksda "asosiy faoliyat turi" atamasiga tushuncha berilmaganligi sababli, Soliq kodeksining 60-moddasi mazkur mazmundagi o'n ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilmoqda.

Taklif qilinayotgan tahrir: Soliq kodeksining 75-modda. Soliq imtiyozlari

...(uchinchi qism) Agar ushbu moddaning beshinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq imtiyozlari ushbu Kodeks bilan taqdim etiladi.

...(beshinchi qism) Ayrim soliqlar bo'yicha soliq imtiyozlari, qo'shilgan qiymat solig'i, foyda solig'i, aksiz solig'i solinadigan mahsulotlar ishlab chiqarilganda va (yoki) realizatsiya qilinganda aksiz solig'i, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqdan, foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari, ushbu moddaning yettinchi qismi qoidalarini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan faqat belgilangan soliq stavkasini kamaytirish, lekin ko'pi bilan 50 foizga kamaytirish tarzida va ko'pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin.

(oltinchi qism) Foyda solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan faqatgina amortizatsiya qilinadigan asosiy vositalarni tezlashtirilgan amortizatsiya qilish huquqini berish tarzida uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga taqdim etiladi.

(ettinchi qism) Ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq to'lovchilar soliqlar bo'yicha imtiyozlardan tegishli huquqiy asoslar yuzaga kelgan paytdan e'tiboran ularning butun amal qilish davri mobaynida foydalanishga yoki soliq imtiyozidan foydalanishdan voz kechishga yoxud undan foydalanishni bir yoki bir necha soliq davrlarida to'xtatib turishga haqli, bundan qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish mustasno.

(o'n to'rtinchi qism) Yuridik shaxslar o'tgan kalendar yil yakunlari bo'yicha quyidagi shartlarni bir vaqtning o'zida bajargan taqdirda, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha soliq imtiyozlaridan joriy soliq davrida foydalanish huquqiga ega bo'ladi:

tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va (yoki) yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha foydalanilgan soliq imtiyozidan oshganda;

har bir xodimiga mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 2 baravaridan kam bo'lmagan oylik ish haqi hisoblangan xodimlarning yillik o'rtacha soni kamida uch nafarni tashkil etganda.

(o'n beshinchi qism) Ushbu moddaning o'n to'rtinchi qismida nazarda tutilgan shartlarni aniqlashda:

soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan aniqlashtirilgan soliq hisobotlari;

soliq davri yakunlari bo'yicha soliq hisobotlarini taqdim etish muddati kelmaganda, oxirgi 12 oydagi tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma inobatga olinadi.

(o'n oltinchi qism) Ushbu moddaning o'n to'rtinchi qismida nazarda tutilgan shartlar quyidagilarga nisbatan qo'llanilmaydi:

to'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga;

mahsulot taqsimotiga oid bitim ishtirokchilariga;

notirojat tashkilotlarga;

yagona ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo'lgan va xodimlarining umumiy sonida nogironligi bo'lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan

hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash fondi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar;

2026-yil 1-yanvarga qadar maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi maqomini olgan yuridik shaxslarga.

(o'n yettinchi qism) Soliq organlari yuridik shaxslarga yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha soliq imtiyozlaridan joriy soliq davrida foydalanishga haqli ekanligi yuzasidan bildirishnomani elektron tarzda har yili 20 yanvardan kechiktirmasdan soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga yuboradi.

(o'n sakkizinchi qism) Soliq davri davomida yangidan tashkil etilgan soliq to'lovchilarga, shu jumladan yangi taqdim etilgan soliq imtiyozlariga nisbatan ushbu moddaning o'n to'rtinchi qismi qoidalari keyingi soliq davri yakunlari bo'yicha qo'llaniladi, bundan qayta tashkil etilgan yuridik shaxslar mustasno.

Taklif qilinayotgan shartlardan kutilgan ta'sir va asoslantirish:

1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-iyuldagi PQ-226-son qarori 1-ilovasining 10-bandiga muvofiq, investorlarga berilayotgan daromadga asoslangan imtiyozlardan xarajatlarga asoslangan imtiyozlarga o'tish mexanizmini joriy etish ko'zda tutilgan.

Unga ko'ra, tadbirkorlarni foyda solig'idan ozod qilish imtiyozlari yangi texnologik uskunalarni sotib olish, ishlab chiqarishni kengaytirishni to'g'ridan-to'g'ri rag'batlantirmasligini inobatga olgan holda, Xalqaro valyuta jamg'armasi joriy yilning iyun oyidagi missiyasi doirasida xarajatlarga asoslangan imtiyozni, ya'ni tezlashtirilgan amortizatsiya tartibini joriy qilishni tavsiya etgan.

Bunda korxonalarga asosiy vositalar (uskuna, bino va b.) bo'yicha amortizatsiya miqdorini hisobot davridagi (chorak, yil) daromadlarining joriy xarajatlardan oshgan qismiga mos miqdorda belgilash imkoni beriladi.

Masalan, Navoiy EIZdagi "A" MChJning 2024 yilda jami daromadlari 63 mlrd so'mni, jami xarajatlari 52 mlrd.so'mni tashkil etgan. 2025-yil 1-yanvar holatiga korxonaning 36 mlrd so'mlik asosiy vositalar qoldig'i mavjud.

Taklif etilayotgan tartibga ko'ra korxona 11 mlrd.so'm (63-52) miqdorida tezlashtirilgan amortizatsiya summasini qo'llashi mumkin bo'ladi hamda korxonaning soliqqa tortiladigan foydasi "nol"ga teng bo'ladi. Xususan, korxona kelgusi 3-yil ichida qariyb 33 mlrd.so'm (yiliga o'rtacha 11 mlrd so'm) yoki 2025 yil 1 yanvardagi qoldiqqa nisbatan asosiy vositalarning 91 foizini tezlashtirilgan amortizatsiya qilish orqali foyda solig'ini to'lamaydi. Ushbu tartib korxonalarga foyda solig'ini to'lamasdan qisqa muddatlarda asosiy vositalar sotib olishga qilgan xarajatlarini qoplab olish imkonini beradi. Bundan tashqari ushbu tartib korxonalar tomonidan asosiy vositalarni tezroq amortizatsiya qilish uchun joriy xarajatlarini kamaytirishni ham rag'batlantiradi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra tadbirkorlar har yili uskunalariga qilgan investitsiyalarining 20 foizini amortizatsiya qilish orqali shu miqdorni daromadidan chegirib tashlash huquqiga, ya'ni soliqqa tortiladigan foydasini shu miqdorga (20 foiz) kamaytirish huquqiga ega.

Gruziya, Estoniya va Latviya kabi davlatlarda korxona asosiy vositalar foydalanishga topshirilgan soliq yilining o'zida aktivlarning qiymatini to'liq chegirib tashlash imkoniyatiga ega. XVJ amaldagi foyda solig'i imtiyozlarining muddatlarini saqlab qolgan holda bosqichma-bosqich ushbu tartibdan voz kechish hamda soliq stavkasini pasaytirish tarzida imtiyozlarni bermaslikni tavsiya qilgan. Resurs soliqlari bo'yicha qonunchilik hujjatlari bilan taqdim etilgan imtiyozlar miqdori 2024-yilda 3,2 trln.so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan (1,3 trln) 2 barobardan ko'proqqa oshgan. Yuridik shaxslar tomonidan to'langan resurs soliqlarining (10,5 trln) qariyb 30 foizini tashkil etgan. Sohalar kesimida imtiyozlarning 73 foizi qishloq xo'jaligi (asosan mol-mulk solig'i), maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari va direksiyalar (23%, 735 mlrd), mehmonxona va turoperatorlar (6,9%, 219 mlrd), xususiy ijtimoiy soha ob'ektlari (4,5%, 141 mlrd) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

a) Maxsus iqtisodiy zonalarni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan ishlar va berilgan imtiyozlar natijasida 2022-2024-yillarda resurs soliqlari imtiyozlaridan foydalangan zona ishtirokchilarining tovar aylanmasi 1,5 barobarga (27,8 trln.so'mdan 42,4 trln.so'mga), yaratilgan ish o'rinlari soni esa 34 foizga oshgan (53,7 mingdan 72 minggacha). Shu bilan birga, ushbu zonlarda 2024-yilda 88 ta korxona 91,3 mlrd.so'mlik resurs soliqlari bo'yicha imtiyozlardan foydalangan holda soliq hisobotlarida hech qanday tovar aylanmasini ko'rsatmagan, 54 ta korxona esa 1 ta ishchi yoki umuman xodim rasmiylashtirmagan holda 8,6 mlrd.so'mlik imtiyozlardan foydalangan. Misol uchun, Ohangaron tumanida 22 gektar maydonga ega, o'z faoliyatini 2020-yilda boshlagan "A" MChJ tomonidan 2024-yilda jami 927 mln.so'mlik imtiyozlardan foydalanilgan bo'lsada, soliq hisobotlarida tovar aylanmasini va ishchilar sonini ko'rsatmagan. Aksincha, bir davrda va bir hududda faoliyatini boshlagan 10 gektar yer maydoniga ega bo'lgan "B" MChJ qo'shma korxonasi esa 2024-yilda 965 mln.so'mlik imtiyozlardan foydalangan holda, qariyb 300 mlrd so'mlik tovar aylanmasini amalga oshirib, 600 dan ortiq ish o'rnini yaratgan.

b) Xizmat ko'rsatish sohasida 2022-2024-yillarda faoliyat yuritgan tadbirkorlarning tovar aylanmasi 2 barobardan ortiqroqqa oshib, 186 trln so'mni tashkil etgan. Biroq, 2024-yilda xususiy ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi 1 748 ta korxonadan 208 tasi 11,9 mlrd.so'mlik resurs soliqlari imtiyozlaridan foydalanib, soliq hisobotlarida tovar aylanmasini umuman ko'rsatmagan. 125 tasi (7 foizi) tomonidan esa foydalanilgan soliq imtiyozi (9,8 mlrd so'm) tovar aylanmasidan (3,5 mlrd.so'm) ko'pdir. 34 ta korxona qariyb 2 mlrd.so'mlik imtiyozlardan foydalanib, ishchi xodimlarini umuman ko'rsatmagan, 79 tasi esa 1 ta xodim rasmiylashtirib,

2,9 mlrd.so'mlik resurs soliqlari imtiyozlaridan foydalangan. Misol uchun, Toshkent shahrida faoliyatini 2020-yilda boshlagan "A" MChJ 2024-yilda qariyb 90 mln.so'mlik yer va mol-mulk soliqlari bo'yicha imtiyozlardan foydalangan, biroq soliq hisobotlarida tovar aylanmasini va ishchilarini ko'rsatmagan. Shu davrda ish boshlagan "B" MChJ 2024 yilda 106 mln so'mlik yer va mol-mulk soliqlari imtiyozidan foydalangan va qariyb 5 mlrd so'mlik tovar aylanmasini amalga oshirib, 66 ta ish o'rni yaratgan.

v) respublika bo'ylab mehmonxona faoliyati bilan shug'ullanuvchi 2 172 ta tadbirkorlik sub'ektlari mavjud bo'lib, shundan yangi tashkil etilgan 433 tasi 128 mlrd so'mlik (2023-yilda 97 mlrd-so'm) resurs soliqlari bo'yicha imtiyozlardan foydalangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-son qarori bilan 2022-yil 1-yanvardan boshlab 2027-yil 1-yanvarga qadar yangidan qurilgan mehmonxona, savdo komplekslari uchun 5-yil davomida yer solig'i va mol-mulk solig'i stavkalarini 90 foizga kamaytirish imkoniyati yaratilgan. Soliq hisobotlariga ko'ra 2024-yilda 79 ta mehmonxonaning tovar aylanmasi (1 mlrd.so'm) foydalanilgan resurs soliqlari bo'yicha imtiyozlardan (12 mlrd.so'm) 11 barobar kam, shundan 54 tasi esa umuman tovar aylanmasini ko'rsatmasdan 6,6 mlrd.so'mlik imtiyozlardan foydalangan. Misol uchun, Toshkent shahridagi faoliyatini 2019-yilda boshlagan "A" MChJning soliq hisobotlariga ko'ra 2023-yilda 520 mln-so'mlik tovar aylanma amalga oshirilgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 85 foizga kamayib, 76 mln.so'mni tashkil etgan. Foydalanilgan imtiyozi esa 2024-yilda 93 mln.so'mni tashkil etgan. Shuningdek, soliq hisobotlariga ko'ra 2024-yilda resurs soliqlari imtiyozidan foydalangan 24 ta mehmonxonadan 21 tasida 1 ta xodim rasmiylashtirilgan bo'lsa, 3 tasida umuman ishchi ko'rsatilmagan. Biroq, mazkur korxonalar tomonidan 2024-yilda foydalanilgan imtiyoz 2 mlrd.so'mni tashkil etgan.

Misol uchun, Samarqand viloyatidagi faoliyatini 2018-yilda boshlagan "A" mehmonxonasining soliq hisobotlariga ko'ra 2023-2024-yillarda faqat 1 ta xodim ko'rsatilgan va ikkala yilda ham hech qanday tovar aylanma ko'rsatmagan.

Vaholanki, mazkur mehmonxona tomonidan foydalanilgan imtiyoz 2023-yilda 137 mln.so'mni, 2024-yilda esa 183 mln.so'mni tashkil etgan.

Taklif qilinayotgan tahrir:

Soliq kodeksining 81-modda. Soliq hisobotini shakllantirish va tuzish

...(beshinchi qism) Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, ijtimoiy soliq, qo'shilgan qiymat solig'i va aylanmadan olinadigan soliq hisobotlari soliq organlarining axborot tizimida mavjud hamda soliq to'lovchi (soliq agenti) tomonidan shaxsiy kabinetdagi interaktiv xizmatga kiritilgan ma'lumotlar asosida soliq organlari tomonidan elektron shaklda shakllantiriladi.

(oltinchi qism) Soliq organlari tomonidan shakllantirilgan hisobot ma'lumotlari soliq to'lovchining (soliq agentining) hisob hujjatlaridan farq qilganda soliq to'lovchi (soliq agenti) mazkur hisobotga besh kun ichida, lekin tegishli hisobotni taqdim qilish muddatidan kechiktirmasdan tuzatish kiritadi va taqdim qiladi.

(ettinchi qism) Soliq organlari tomonidan shakllantirilgan soliq hisobotiga ushbu moddaning oltinchi qismida ko'rsatilgan muddatda tuzatishlar kiritilmasligi soliq agentining soliq organlari tomonidan shakllantirilgan hisobotga roziligini bildiradi va soliq organlari shakllantirgan holda taqdim qilingan hisoblanadi.

(sakkizinchi qism) Soliq organlari tomonidan shakllantiriladigan hisobotni tuzish, unga tuzatish kiritish va taqdim etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Taklif qilinayotgan shartlardan kutilgan ta'sir va asoslantirish: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-138-son Farmoni (19.08.2025 y.) 11-bandining a-kichik bandiga muvofiq, yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy soliq bo'yicha soliq hisobotlarini shakllantirish vazifasi soliq organlariga o'tkazilgan. Shuningdek, soliq organlari tomonidan shakllantirilgan soliq hisobotlariga soliq to'lovchi tomonidan besh ish kuni ichida zarur tuzatishlarni kiritish va tuzatish kiritilgan soliq hisobotini taqdim etish huquqi berilgan. Bundan tashqari, Prezidentning 2025-yil 12-avgustdagi PQ-247-sonli qarori bilan yillik aylanmasi bir milliard so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun aylanmadan olinadigan soliq to'lashi belgilandi. Bunda, qonunchilikka muvofiq ularning aylanmasi bir milliard so'mdan oshgan Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar QQS to'lashga o'tadi. O'z navbatida, ularda AOS va QQS hisobotlarini taqdim qilish majburiyati ham yuzaga keladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun qulay sharoitlar yaratish, ular uchun soliq hisobotlarini shakllantirish va taqdim qilish, hisobotni o'z vaqtida taqdim qilmaganlik uchun ta'sir choralarini (ma'muriy javobgarlikka tortish, bank hisobvaraqlarini to'xtatish, QQS guvohnomasini to'xtatish qo'llash holatlarini) kamaytirish maqsadida qo'shilgan qiymat solig'i va aylanmadan olinadigan soliq hisobotlarini ham soliq organlari tomonidan proaktiv tartibda shakllantirish taklif qilinmoqda. Ma'lumot uchun: 2025-yil 9 oy davomida QQS hisobotini o'z vaqtida taqdim qilinmaganligi sababli 47 523 ta holat bo'yicha 20 923 ta, AOS hisobotini o'z vaqtida taqdim qilinmaganligi sababli 132 393 ta holat bo'yicha 51 375 ta korxonaning bankdagi hisobvaraqlarini to'xtatish yuzasidan qarorlar qabul qilingan.

Taklif qilinayotgan tahrir:

Soliq kodeksining 100-modda. Soliqlarni to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish shartlari

...(to'rtinchi qism) Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soliqni hisobga olish joyidagi soliq organiga yozma, shu jumladan soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali xabarnoma yuborib, soliq auditi natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliqlar summalarini va moliyaviy sanksiyalarning tekshiruv materiallarini, shuningdek kameral soliq tekshiruvi natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliqlar summalarini ko'rib chiqish natijalari yuzasidan soliq organi tomonidan qabul qilingan qaror kuchga kirgan kundan e'tiboran olti oy ichida teng ulushlarda to'lashga haqli. Bunda mazkur tartib sayyor soliq

tekshiruv natijalari bo'yicha hisoblangan moliyaviy sanksiyalar summasini to'lashda ham tatbiq etiladi.

Taklif qilinayotgan shartlardan kutilgan ta'sir va asoslantirish: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-avgustdagi PF-138-son Farmoni 1-ilovasining 11-bandiga asosan tadbirkorlik sub'ektlarining soliq auditi natijalari bo'yicha moliyaviy sanksiyalarni 6 oy ichida teng ulushlarda to'lash huquqi sayyor soliq tekshiruv natijalari bo'yicha moliyaviy sanksiyalarga ham tatbiq etish nazarda tutilgan. 2024-yilda soliq organlari tomonidan o'tkazilgan sayyor soliq tekshiruv natijalari bo'yicha soliq to'lovchilarga 3,2 trln.so'm moliyaviy jarimalar hisoblangan. Ushbu taqdim etilayotgan yengillik mazkur moliyaviy jarimalarni soliq to'lovchilar tomonidan 6 oy davomida teng ulushlarda bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini beradi. Mazkur taklif soliq to'lovchilar faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ortiqcha ovoragarchiliklarning oldi olinadi.

Taklif qilinayotgan tahrir: Soliq kodeksining 120-modda. Soliq qarzini undirish to'g'risidagi umumiy qoidalar

...(o'n to'rtinchi qism) Soliq organlari tomonidan soliq qarzi soliq to'lovchining debitorlari hisobidan undirilishi mumkin. Soliq qarzi undiruvini soliq to'lovchining debitorlik qarzigacha qaratish ushbu Kodeksning 121¹-moddasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

(o'n beshinchi qism) Ushbu bobning qoidalari O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tish munosabati bilan to'lanadigan soliqlar bo'yicha soliq qarzini undirishga, shuningdek soliq agentlarining soliq qarzini undirishga ham tatbiq etiladi.

Taklif qilinayotgan shartlardan kutilgan ta'sir va asoslantirish: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-138-son Farmonining (19.08.2025 y.) 1-ilovasi 18-bandining "a" kichik bandiga asosan soliq majburiyatlari bajarilishini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha soliq qarzini soliq to'lovchining debitorlari hisobidan undirish imkoniyatini yaratish yuklatilgan. Soliq to'lovchilar soliq qarzlarni o'zining debitorlaridan undirishni soliq organlari orqali amalga oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Debitorlar hisobidan soliq qarzining undirilishi qarzdor soliq to'lovchining moliyaviy ahvoriga ta'sir qilmagan holda, undan qarzdor bo'lgan korxonalaridan qarzdorlik byudjetga to'lanishiga hamda soliq to'lovchiga nisbatan qo'shimcha penyalari hisoblanishi oldi olinadi. Shuningdek soliq qarzini debitorlik qarzi hisobidan undirish soliq intizomini mustahkamlash va iqtisodiy aylanmani sog'lomlashtirishga xizmat qiluvchi samarali mexanizmdir. Amaldagi qonunchilikka asosan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar munosabatlari o'rtasidagi nizolar sud tartibida ko'rib chiqiladi. Bunda da'vo qilayotgan sub'ekt tomonidan sudga oldindan davlat boji va pochta xarajatini to'lash talab etiladi. Davlat boji miqdori – da'vo bahosining 2 %da, biroq BHMning 1 baravaridan kam bo'lmasligi lozim. Ayrim tadbirkorlarda ushbu davlat boji va pochta xarajatlari to'lash imkoniyati mavjud emasligi sababli, soliq qarzini debitoridan undirish yuzasidan sudga murojaat qilmaydi va soliq qarzini ham o'z vaqtida to'lanmaydi. Ma'lumot uchun: 2025-yil 1-oktabr holatiga 14,8 mingta korxonaning 105,8 trln.so'm debitor qarzi mavjud bo'lsada, ulardan 2,8 trln.so'mlik soliq qarzi to'lanmasdan qolmoqda. Bugungi kunda 19,5 mingta korxonaning 98,2 trln.so'm debitor qarzi mavjud bo'lsada, ulardan 4,7 trln.so'mlik soliq qarzi to'lanmasdan qolmoqda. Shunga ko'ra, Soliq kodeksining 120-moddasi ushbu mazmundagi o'n to'rtinchi qism bilan to'ldirilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Xorijiy tajribani o'rganish natijalari, soliq siyosati samaradorligini baholash bo'yicha ko'pkomponentli mualliflik yondashuvini shakllantirishga imkon berdi, xususan:

- umuman iqtisodiyotga soliq yukining darajasini real baholash uchun-soliqqa tortilmaydigan yoki imtiyozli oborot, ob'ektlarni, alohida soliq to'lovchilarning tarmoqlari va guruhlari bo'yicha yondashishning ahamiyatligi;

- davlat faoliyatini ta'minlash uchun davlat byudjetining daromad qismida soliq tushumlari prognoz ko'rsatkichlarini kafolatlangan holda ta'minlash;
- soliq risklarini kamaytirish;
- resurs yondoshuvidan foydalanish va maqsadli yondashuv orqali amalga oshirilayotgan soliq siyosatining sifati, belgilangan maqsadlarga erishish. Yuqorida keltirib o'tilgan taklif O'zbekistonda soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish va raqamlashtirish amaliyotga joriy qilinishi soliq ma'murchiligini rivojlantirishga olib keladi deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar/Lumepamypa/References:

Аронов, А.В. и Кашин, В.А. (2007). *Налоги и налогообложение*. Москва: Магистр, с. 99–100.

Даркина, Ю.А. (2019). Особенности налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков. *Interactive Science*, 3(37).

Дементьева, Н.М. (n.d.). *Налоговая политика государства*. Доступно по ссылке: https://nsuem.ru/science/publications/science_notes/issue.php?ELEMENT_ID=1689.

Жўраев, А. и Сафаров, Ғ. (2005). *Солиқ назарияси*. Тошкент: "Iqtisod-moliya", 48-бет.

Камалнев, Т.Ш. (2009). *Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков*. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва.

Карп, М.В. (2001). *Налоговый менеджмент*. Москва: Юнити-Дана, 39 с.

Майбуров, И.А. (2007). *Налоги и налогообложение*. Москва: Юнити-Дана, 655 с.

Ситникова, О.В. (2012). *Совершенствование налогообложения крупнейших консолидированных налогоплательщиков*. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва.

Солиқ қўмитаси. (n.d.). *Республикамиз солиқ қўмитаси маълумотлари*. Available at: www.soliq.uz.

Юнак, А.А. (2009). *Проблемы правового регулирования налогового контроля и учета крупнейших налогоплательщиков*. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Москва, с. 12.